



GLOBALLASHUV SHARAOITIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li

FarDU 1- kurs magistranti

Muhammadjonova O'g'iloy Bahodirjon qizi

FarDU 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, globallashuv haqida ma'lumot hamda bu jarayonning ta'lim- tarbiya masalasidagi o'rni va ro'li shuningdek globallashuv jarayonining afzallik tomonlari va ta'lim – tarbiya masalasida bu jarayonning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar berilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, omil, mintaq, hududlar, taraqqiyot, obyektiv, ravnaq

Аннотация: В данной статье представлена информация о глобализации, месте и роли этого процесса в вопросе образования и обучения, а также о преимуществах процесса глобализации и о том, насколько важен этот процесс в вопросе образования и обучения.

Ключевые слова: глобализация, фактор, регион, регионы, развитие, цель, развитие.

Abstract: This article provides information about globalization and the place and role of this process in the issue of education and training, as well as the advantages of the process of globalization and how important this process is in the issue of education and training. .

Key words: globalization, factor, region, regions, development, objective, development



KIRISH. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob’yektiv tan olish kerak, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo’shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog’lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma’noda, globallashuv - bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

“Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T. Levitt tomonidan 1983 yili “Garvard biznes rev’yu” jurnalida chop qilgan maqolasida qo’llangan. T. Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan. Mazkur ta’rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tamonlariga e’tibor berilgan. O’z davrida fransuz faylasufi R. Dekart “Tushunchalar ma’nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi” - deb yozgan edi. Ayni shu ma’noda dastlab biz “globallashuv” tushunchasining istilohiy ma’nosini izohlashga harakat qilamiz. Bu so’zga quyidagicha tarif berish mumkin: Globallashuv – Jahon xo’jaligi rivojlanishining ob’yektiv jarayoni bo’lib, juda ko’p ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo’jaligining o’zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm-fan, texnika texnologiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko’maklashuv bilan tasdiqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA. Globallashuv – butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikr-ga ega bo’lgan barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Globallashuv sharoitida ta’lim oluvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shakllantirish jarayonini o’rganib chiqishda muloqot tushunchasiga oydinlik kiritib olsak. Muomala - axborot jarayonidir. Axborot ikki yunalishda: boshqarish sub’ektidan (pedagogdan) boshqarish ob’ektiga (o’quvchilarga) boradi va aksincha - obyektidan subyektga boradi.



XXI asr boshlariga kelib, dunyo mamlakatlari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan toʻliq himoyalani olgan birorta ham davlat yoʻq deb toʻla ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan oʻaro turishga intilayotgan, ularga aʼzo boʻlishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda yemas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning taʼsiriga koʻproq uchrab qolishmoqda. Bunday gʻayri ixtiyoriy taʼsir esa koʻpincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Bugun jadal surʼatlar bilan rivojlanib borayotgan globallashuv har bir davlat, xalq, millat, yoxud insoniyat maʼnaviyatida yangicha maʼno-mazmun kasb etmoqda. Jamiyat rivojida “har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni boʻlgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas.

Lekin mana shunday yutuqlar bilan birgalikda globallashuv ayrim xalqlarning milliy gʻoyasi, mafkurasi, eʼtiqodi va oʻtmish merosiga ham maʼnaviy tahdid solayotganligini unutmasligimiz lozim. Globallashuv davri bizning yashash, ishlash va bir-birimiz bilan muloqot qilish tarzimizda jiddiy oʻzgarishlarni keltirib chiqardi. Dunyo tobora oʻzaro bogʻlangan boʻlsa, odamlar ichki tinchlik, maqsad va oʻz-oʻzini amalga oshirish vositasi sifatida maʼnaviy tarbiyaga tobora koʻproq murojaat qilmoqdalar. Ushbu maqolada biz globallashuv sharoitida maʼnaviy tarbiyaning asosiy yoʻnalishlari, shuningdek, anʼanaviy donishmandlikni zamonaviy bilimlar bilan uygʻunlashtirgan yaxlit yondashuv zarurligini koʻrib chiqamiz. Yoshlarning har bir yangi avlodi yoshlar va katta avlodlar, yoshlar va davlat munosabatlari solnomasiga yangi, original sahifalarni yozdiradi, shuning uchun yoshlar muammosi hamma vaqt tadqiqotchilarning eʼtiborida boʻladi. Zamonaviy yoshlarning asosiy ustuvorliklari adabiyot va sanʼatga qiziqishi, oliy taʼlimga ega boʻlish, axloqiy qadriyatlarni tanlab olish qobiliyati, kasbiy mahorat va malakalilik, tabiat va insonga taʼsirchanlik, kasbiy dunyoqarashning rivojlanganligi kabilardir. Yaʼni, yoshlar uchun madaniy insonning belgisi – uning har tomonlama rivojlanganligidir.

NATIJA VA MUHOKOMALAR. Globallashuvning ulkan yutugʻi jahon axborot tarmogʻining – Internetning rivojlanganligi hisoblanadi. Internet eng mashhur axborot



manbai deb tan olingan. Yoshlar, ayniqsa ta'sirchan bo'lib, turli texnikaviy yangilanishlarni tezda o'zlashtirib olishadi. Ular uchun Internetdan foydalanish shaxsiy avtomobil yoki sayohat kabi "ramziy iste'mol" va "hayotiy qulaylik" belgisi hisoblanadi. 65 % holatlarda ular Internetga kasbiy ehtiyojlarni qondirish uchun emas, balki bo'sh vaqtni to'ldirish uchun murojaat qilishadi. Bugungi kunda globallashuv jahonni faol transformatsiyalashtirib, insoniyat hayotining barcha sohalarini – iqtisodiyot, huquq, madaniyatni, til, ta'lim, ma'naviy-axloqiy taraqqiyotni qamrab olmoqda. Globallashuvning uchta aspektini ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, umum tan olingan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish, umumiy madaniy qadriyatlarga va yagona hayotiy tamoyillarga sodiqlik, hamma narsani universallashtirishga intilish; ikkinchidan, ijtimoiy hayotdagi alohida shakllarning integratsiyasi va o'sib borayotgan o'zaro aloqadorligi; uchinchidan, individlarning hayotiy strategiyalari va ijtimoiy aloqalarning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy aspektidir. Inson tarbiyasi haqida gap ketar ekan insonning jamiyatdagi o'rne va vazifalari turli–tuman bo'lgani singari tarbiya turlari ham xilma–xildir. Har bir tarbiya usulining o'ziga xos yo'nalishi va usullari mavjuddir. Hozirgi globallashuv va ma'naviy-ma'rifiy kurashlar davrida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya – tarbiyaning eng muhim va dolzarb ko'rinishlaridandir. Avvalo, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya samaradorligiga erishish uchun tarbiyalanuvchining bilim darajasi, fikrlash qobiliyati ham hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunda yoshlarning chuqur bilim olishi, ularning intellektual salohiyatining rivojlanishi, qobiliyatlarining ro'yobga chiqishi uchun barcha imkoniyatlar ochib berilgan. Bu esa mamlakatimiz yoshlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani o'ziga singdirish, milliy istiqlol g'oyasida belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun yoshlarimizda barcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning yana bir maqsadi odatiy, an'anaviy fikrlash tarzidan voz kechib, yangicha, ilg'or fikrlashga o'tishdir. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, uni ta'limdan ajratib bo'lmaydi, chunki ta'lim ma'naviy-ma'rifiy



tarbiyasiz, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya esa ta'limsiz amalga oshmaydi. Bizning fikrimizcha, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani uzluksiz ta'lim bilan qo'shib olib borish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- 1) ta'lim tizimida barcha yoshdagi bolalar va talabalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi singdirishning yangi pedagogik va psixologik dasturni yaratish;
- 2) kadrlar tayyorlash milliy dasturiga alohida o'quvchi va talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish haqida yo'nalish kiritish;
- 3) davlat ta'lim standartlari, darsliklar va qo'llanmalarda qaysi sohada bo'lmasin, albatta milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalarini singdirish;
- 4) maktab, litsey, kollej va institut, universitetlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yuqori, birlamchi darajaga ko'tarish;
- 5) pedagogik kadrlarning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida malaka oshirish kurslarini barcha mutaxassisliklar uchun joriy etish;
- 6) ta'lim-tarbiyaning har bir bosqichida yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini bosqichma – bosqich chuqurlashtirib singdirib borish.

XULOSA. Bugungi globallashuv jarayonlari dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur uslubini taqozo qilmoqda. Shu bois O'zbekistonda ta'limning ijtimoiylashuvi va ilm-fanni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talaba-yoshlarni muayyan mutaxassislik, kasb-hunarni chuqur egallagan kadrlar etib tarbiyalash bilan birga, Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoiylik ko'rsata oladigan, mustaqilligimiz mohiyati va qadrini teran anglaydigan, uni har qanday xavf-xatardan asrashni o'zining muqaddas burchi, deb biladigan shaxslar qilib ulg'aytirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сорокин В. Глобализация и цивилизация: аналитический подход. М.: Мысль.2010.- С.261
2. Афанасьев К. Политология. М.: Знание. 2009, -С.109
3. Хасанов Э. Миллий маънавият назарияси. Т.: Маънавият, 2014.-Б.8
4. Дониёров Б. Талаба ёшларни маънавий-маърифий ишларга жалб этиш усуллари. Т.: Маънавият, 2011.-Б.5-6
5. Хасанов И. Маънавиятшунослик. Т.: Шарқ, 2016.-Б.23
6. Shavkat Mirziyoev jamiyatimizning og`riqli nuqtalari haqida fikrlarini bildirdi // darakchi.uz URL: <https://darakchi.uz/oz/29070>
7. Экстремизм ва терроризмга қарши курашда Ўзбекистон тажрибаси // iiv.uz URL: <https://iiv.uz/oz/news/ekstremizm-va-terrorizmga-qarshi-kurashda-ozbekiston-tajribasi>
8. Omirzakov, R. (2023). SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS AND ITS ROLE IN THE STATE POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL PROTECTION. International Journal Of Law And Criminology, 3(07), 89-93.
9. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. Science and Education, 2(11), 985-991.
10. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. Science and Education, 2(9), 309-314.
11. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O‘ZLASHTIRISH YO‘LLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 535-542.
12. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).
13. Tojimatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.